



## AN'ANAVIY VA MASOFAVIY TA'LIMNING AFZALLIKLARI HAMDA KAMCHILIKLARI: ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI

*Xayitmurodova Dinora Umrzoq qizi*

*Samarqand davlat chet tillar instituti 2-bosqich talabasi*

*Azizova Dildora Berdimurodovna*

*Samarqand davlat chet tillar instituti ingliz filologiyasi kafedrası  
o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada an'anaviy va masofaviy ta'lim shakllarining mohiyati, afzalliklari hamda kamchiliklari ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi. Ta'limning ushbu ikki shakli o'rtasidagi farqlari ochib berilib, zamonaviy ta'lim tizimida ularni uyg'unlashtirish zarurati asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari ta'lim sifatini oshirishda aralash ta'lim modelining samaradorligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim tizimi, an'anaviy ta'lim, masofaviy ta'lim, raqamli ta'lim, "blended learning", innovatsiya, zamonaviy texnologiyalar, onlayn platformalar, elektron darsliklar.

### KIRISH

Bugungi globallashtirish va raqamlashtirish sharoitida ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim shakllarining takomillashuviga olib kelib, masofaviy ta'limning keng joriy etilishiga sabab bo'ldi. Shu bilan birga, an'anaviy ta'lim o'zining barqarorligi va samaradorligi bilan hanuzgacha muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi — an'anaviy va masofaviy ta'lim shakllarining afzalliklari hamda kamchiliklarini ilmiy asosda tahlil qilish va zamonaviy ta'lim tizimi uchun eng maqbul yondashuvlarni aniqlashdan iborat.

### MUHOKAMA

An'anaviy ta'lim tushunchasi va nazariy asoslari



An'anaviy ta'lim — bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi bevosita muloqotga asoslangan, asosan auditoriya sharoitida amalga oshiriladigan ta'lim shaklidir. Ushbu ta'lim turi ko'p asrlik pedagogik tajribaga ega bo'lib, ta'lim jarayonining asosiy subyektlari (o'qituvchilar va o'quvchilar) o'rtasidagi jonli aloqani ta'minlaydi. Pedagogika fanida an'anaviy ta'lim shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, tarbiyaviy ta'sir va bilimlarni tizimli o'zlashtirish bilan tavsiflanadi. O'qituvchining nazorati, baholash tizimi va didaktik metodlardan foydalanish an'anaviy ta'limning muhim komponentlari hisoblanadi.

An'anaviy ta'lim jarayonida talabalar nafaqat nazariy bilimlarni, balki ijtimoiy ko'nikmalarni ham egallaydilar. Jamoada ishlash, fikr almashish, bahs-munozaralarda ishtirok etish hamda baholanish orqali ularning kommunikativ kompetensiyasi shakllanadi. Ushbu turdagi ta'limning nazariy asoslari klassik pedagogik g'oyalarga tayanadi. Xususan, Ya.A. Komenskiy, K.D. Ushinskiy va J. Piajening pedagogik qarashlarida o'qituvchining yetakchi roli, bilimlarning tizimli va bosqichma-bosqich berilishi asosiy tamoyil sifatida qaraladi. Bu ta'lim shaklida o'qituvchi bilim manbai, talaba esa bilimni qabul qiluvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

An'anaviy ta'limda dars jarayoni ma'lum reja va jadval asosida olib boriladi. Ma'ruza, seminar, amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ishlari va nazorat shakllari (test, yozma va og'zaki imtihonlar) ta'lim mazmunining izchilligini ta'minlaydi. Ushbu yondashuv bilimlarning tizimli o'zlashtirilishiga va nazoratning aniq olib borilishiga xizmat qiladi. Shuningdek, an'anaviy ta'limning muhim jihatlaridan biri — tarbiyaviy funksiyasidir. Ta'lim muassasasidagi muhit, o'qituvchi shaxsiyati va jamoa bilan muloqot talabalarda axloqiy qadriyatlar, mas'uliyat va intizomni shakllantiradi. Bu holat masofaviy ta'limda to'liq ta'minlanmasligi mumkin. Biroq zamonaviy jamiyat talablarining ortib borishi an'anaviy ta'limni yangi pedagogik texnologiyalar bilan boyitishni talab etmoqda. Bu esa masofaviy va raqamli ta'lim shakllarining paydo bo'lishiga zamin yaratadi.

Masofaviy ta'limning paydo bo'lishi va rivojlanish bosqichlari



Masofaviy ta'lim — bu zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi fazoviy masofani bartaraf etgan holda amalga oshiriladigan ta'lim shaklidir. Ushbu ta'lim turi bilim olish imkoniyatlarini kengaytirib, ta'lim jarayonini moslashuvchan va ochiq tizimga aylantirdi. Masofaviy ta'limning dastlabki shakllari XX asr boshlarida yozma darsliklar va pochta orqali olib borilgan kurslar bilan bog'liq bo'lgan. Keyinchalik radio va televideniye orqali ta'lim berish usullari rivojlandi. XXI asrga kelib esa internet texnologiyalarining rivojlanishi masofaviy ta'limni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqdi.

Zamonaviy masofaviy ta'lim quyidagi texnologik vositalarga asoslanadi:

- onlayn ta'lim platformalari (Moodle, Google Classroom va boshqalar);
- videoma'ruzalar va vebinarlar;
- elektron darsliklar va interaktiv materiallar;
- avtomatlashtirilgan baholash tizimlari.

Masofaviy ta'limning joriy etilishi ta'limning ommaviylashuviga olib keldi. Endilikda turli yoshdagi va turli ijtimoiy qatlam vakillari birdek bilim olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu ayniqsa, chekka hududlarda yashovchi yoki ishlash bilan birga ta'lim olayotgan shaxslar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq masofaviy ta'lim samaradorligi texnik ta'minot, internet sifati va talabning mustaqil ishlash ko'nikmalariga bevosita bog'liq bo'lganligi sababli bu ta'lim turi barcha sharoitlarda bir xil natija bermasligi mumkin.

An'anaviy ta'limning eng muhim afzalligi shundaki, u o'qituvchi va talaba o'rtasida bilimlarni to'g'ridan-to'g'ri tushuntirish, savol-javob qilish va muammoli vaziyatlarni tezkor hal etish imkonini beradi. Bu holat talabalarning dars jarayonida faol ishtirok etishiga xizmat qilsa, masofaviy ta'limda jonli muloqotning yetishmasligi va buning natijasida o'quvchilarning o'qishga bo'lgan ishtiyoqi va qiziqishlari pasayib ketishi bu turdagi ta'lim tizimining asosiy kamchiliklaridan biri sanaladi. Shuningdek, masofaviy ta'lim texnik vositalarga yuqori darajada bog'liq ekanligi tufayli internet tezligi past yoki texnik imkoniyatlar yetarli bo'lmagan sharoitlarda ta'lim sifati pasayishiga olib keladi. Masofaviy ta'limda hisobga olinishi



zarur bo'lgan yana bir muhim jihat shundaki, bunday vaziyatda talabadan yuqori darajada mustaqillik, mas'uliyat va vaqtni to'g'ri rejalashtirish talab etiladi. Chunki zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda biror bir chalg'ituvchi o'yinlar, ijtimoiy tarmoqlar yoki qisqa muddatli videolarga berilmasdan ta'lim olish birmuncha murakkab sanaladi. Ammo, an'anaviy ta'lim tizimida nazorat va intizomning yuqori darajada ekanligi talabalarning darsga qatnashishini, topshiriqlar bajarilishini va bilim darajasi muntazam nazorat qilinishini ta'minlaydi. Bu esa ta'lim jarayonining tizimli va barqaror bo'lishiga olib keladi.

Shuningdek, an'anaviy ta'lim ijtimoiylashuv jarayonini samarali amalga oshiradi. Talabalar jamoada ishlash, o'z fikrini erkin bayon etish, bahs-munozaralarda qatnashish orqali kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantiradilar. Bu ko'nikmalar kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliy fanlar uchun bu turdagi ta'lim ayniqsa samarali hisoblanadi. Laboratoriya mashg'ulotlari, seminarlar va amaliy darslar yuzma-yuz tarzda olib borilganda, bilimlar chuqurroq va mustahkamroq o'zlashtiriladi. Shu bilan birga, an'anaviy ta'limning ayrim salbiy jihatlari ham mavjud. Eng avvalo, bu ta'lim shakli joy va vaqtga qat'iy bog'langan. Talabalar ma'lum jadval asosida darslarga qatnashishga majbur bo'ladilar, bu esa ishlovchi yoki chekka hududlarda yashovchi shaxslar uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Ikkinchi kamchilik — moliyaviy xarajatlarning ko'pligidir, ya'ni transport, yashash joyi, o'quv qurollari va boshqa xarajatlar talabalarga qo'shimcha yuk bo'lishi mumkin. Masofaviy ta'lim ya'ni onlayn ta'lim tizimida talabalar istalgan joyda va istalgan vaqtda ta'lim olish imkoniyatiga ega. Bu, ayniqsa, ishlovchi yoshlar va ikkinchi mutaxassislik olishni istagan shaxslar uchun qulaydir. Ikkinchi muhim jihat — geografik cheklolarning yo'qligi. Masofaviy ta'lim orqali talabalar dunyoning istalgan nuqtasidan yetakchi ta'lim muassasalari kurslarida qatnashishlari mumkin. Masofaviy ta'lim vaqt va mablag' tejatlashini ham ta'minlaydi ya'ni transport va yashash bilan bog'liq xarajatlar kamayadi, bu esa ta'limning iqtisodiy jihatdan samaradorligini oshiradi.

Zamonaviy ta'lim tizimida an'anaviy va masofaviy ta'lim shakllarini o'zaro taqqoslash ularning samaradorligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Har ikkala



ta'lim turi o'ziga xos metodik, tashkiliy va texnologik xususiyatlarga ega bo'lib, ularning afzallik va kamchiliklari turli ta'lim sharoitlarida turlicha namoyon bo'ladi. An'anaviy va masofaviy ta'limning taqqoslanishi ularning o'zaro integratsiyasi ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Bu esa aralash ta'lim modelining dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Aralash ta'lim modeli ("blended learning") — bu an'anaviy va masofaviy ta'lim elementlarini uyg'unlashtirgan zamonaviy ta'lim shaklidir. Ushbu model ta'lim jarayonida texnologiyalardan samarali foydalanish bilan birga, jonli muloqotning afzalliklarini ham saqlab qoladi. Aralash ta'lim modelida ma'ruzalarning bir qismi onlayn shaklda, seminar va amaliy mashg'ulotlar esa an'anaviy tarzda tashkil etiladi. Bu esa ta'lim jarayonining moslashuvchanligini oshiradi va talabalar uchun qulay sharoit yaratadi.

Mazkur modelning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- individual o'rganish sur'atini ta'minlash;
- o'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqotni saqlab qolish;
- raqamli va ijtimoiy kompetensiyalarni birgalikda rivojlantirish;
- ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish.

Bugungi kunda ko'plab oliy ta'lim muassasalari aralash ta'lim modelini joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirishga erishmoqdalar. Ushbu yondashuv ta'lim tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

## XULOSA

Mazkur maqolada an'anaviy va masofaviy ta'lim shakllarining nazariy asoslari, afzalliklari hamda kamchiliklari batafsil tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, an'anaviy ta'lim jonli muloqot, intizom va tarbiyaviy ta'sir nuqtayi nazaridan ustunlikka ega bo'lsa, masofaviy ta'lim moslashuvchanlik, ochiqlik va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi. Aralash ta'lim modeli an'anaviy va masofaviy ta'limning eng samarali jihatlarini birlashtirgan holda, zamonaviy ta'lim talablariga mos keluvchi optimal yechim hisoblanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Komenskiy Ya.A. Didactica Magna. — Moskva: Pedagogika, 1982.



2. Ushinskiy K.D. Inson tarbiyasining predmeti. — Moskva, 1990.
3. Polat E.S. Masofaviy ta'lim nazariyasi va amaliyoti. — Moskva, 2005.
4. Moore M., Kearsley G. Distance Education: A Systems View. — Belmont, 2012.
5. Bonk C.J., Graham C.R. The Handbook of Blended Learning. — San Francisco, 2006.
6. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonuni. — Toshkent, 2020.
- 1.